



The Artistic Portrayal of Najmiddin Kubro

Shakhnoza BURIEVA¹

Termez State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2025

Received in revised form

10 August 2025

Accepted 25 August 2025

Available online

15 September 2025

Keywords:

sufi,
sophus,
valitarosh,
khirqa,
sheikh,
hadith,
tariqat,
fana,
khanqah.

ABSTRACT

This article analyzes Khurshid Davron's historical-educational narrative "Dreams of Sheikh Kubro – King of Martyrs", examining the artistic portrayal of Sheikh Najmiddin Kubro, who held a highly esteemed position among Sufi scholars. The study also explores the Sheikh's life journey from multiple perspectives.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss7/S-pp87-92>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Najmiddin Kubro obrazining badiiy talqini

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

so'fiy,
sofus,
valitarosh,
hirqa,
shayx,
hadis,
tariqat,
fano,
xonaqoh.

Ushbu maqolada Xurshid Davronning "Shahidlar shohi – Shayx Kubro tushlari" tarixiy-ma'rifiy qissasi tahlil etilgan bo'lib, tasavvuf allomalari orasida yuksak mavqega ega bo'lgan Shayx Najmiddin Kubro obrazining badiiy talqini, shuningdek, Shayxning hayot yo'li bir necha rakursda o'rganilgan.

¹ Master degree student, Termez State University. E-mail: sh.b.alisherovna@gmail.com

Художественное осмысление образа Наджмиддина Кубро

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

суфий,
софус,
валитарош,
хирка,
шейх,
хадис,
тарикат,
фана,
ханака.

В данной статье анализируется историко-просветительская повесть Хуршида Даврона «Сны Шейха Кубро – царя мучеников». В ней рассматривается художественная интерпретация образа Шейха Наджмиддина Кубро, занимающего высокое положение среди суфийских ученых, а также жизненный путь Шейха изучается с нескольких ракурсов.

Hozirgi o'zbek adabiyotida tasavvuf allomalari hayoti va ijod yo'lining yoritilishi ular haqida nafaqat tarixiy faktlarni o'rganishga, balki o'quvchining ushbu obrazlarni badiiy talqin qilishga asos bo'ladi. Bunday asarlardan biri Xurshid Davron qalamiga mansub "Shahidlar shohi- Shayx Kubro tushlari" tarixiy-ma'rifiy qissasidir. Ushbu asar 1997-yilda yozilgan bo'lib, Sharqning buyuk allomasi, Kubroviya tariqati asoschisi – Shayx Najmiddin Kubro hayoti va faoliyatiga bag'ishlangandir. Muallif asar xotimasida ushbu qissani ikki yarim yilda yozib bitirganini va birdan nashr ettirganini ta'kidlaydi.

"Shahidlar shohi" ma'rifiy qissasi ikki jihati bilan Najmiddin Kubro obrazini o'ziga xos tarzda ifodalaydi. Bular: tarixiylik va badiiylikdir. Asarda Xorazmshohlar davlatining tanazzuli va mo'g'ullar istilosi o'tmish haqiqatlari va faktlar asosida tahlil etilar ekan, shu o'rinda Najmiddin Kubroning badiiy obrazi asosiy planda talqin etilgan. Yozuvchi tasavvuf vakilini tasvirlar ekan, juda diqqatli bo'lganligi va ma'lumotlar izchilligiga alohida e'tibor qilgani Najmiddin Kubro hayoti haqidagi ma'lumotlarda o'z aksini topgan. Albatta, tarixiy shaxslar, ayniqsa, diniy ulamolar timsolini yaratishda mazkur jarayon juda ahamiyatli hisoblanadi. Boisi har qanday noaniqlik yoki bo'rttirish tasavvuf allomalari haqida salbiy tasavvur paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, muallif o'z davrida u haqda yozilgan tazkiralardan va shayxning o'z qalamiga mansub asarlardan foydalangan.

Dastlab, Najmiddin Kubro obrazini o'rganishda "Shahidlar shohi" ma'rifiy qissasida tilga olingan shayxning hayoti va faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarga e'tibor qaratishimiz lozim. Asarda Xorazmshohlar saltanatining tanazzuli, mo'g'ullar istilosi va bu jarayonda Najmiddin Kubroning alohida roli tasvirlanganining guvohi bo'lamiz. Shunga ko'ra, qissada Najmiddin Kubro obrazi quyidagi bosqichlarda talqin etiladi:

1. Tasavvuf va uning mohiyati;
2. Najmiddin Kubroning ustozlari va tahsil jarayoni;
3. Kubroviya tariqatining ahamiyati va shayxning shogirdlari;
4. Najmiddin Kubroning shahid bo'lishi.

"Shahidlar shohi" asari tasavvufning asl mohiyati va etimologiyasini sodda va ilmiy ma'lumotlar asosida badiiy ifoda etadi. Muallif Najmiddin Kubro o'ylarida tasavvufning ahamiyati va mazmunini aks ettiradi. "Yosh Ahmad tasavvuf, so'fiylar haqida xayol surar ekan, zehni ochilib borardi. "So'fiy" , "Tasavvuf" atamalarining kelib chiqishi haqida turlicha mulohazalar bordir. Abu Rayhon Beruniyning fikricha, "sof" yunoncha "sofus"- "hikmat" degan ma'noni anglatadi"(8,40). Shuningdek, muallif tasavvufning "yung" so'zidan kelib chiqqani holda o'z taraqqiyoti davomida ma'naviy qatlamlarni egallab, islom dunyosida muhim o'rin egallagani va "Sof" , "soflik" so'zlari tomonga yaqinlashib borganini

ta'kidlaydi. Tasavvufning asl mohiyati haqida fikr yuritar ekan, Boyazid Bistomiyning bir iqrorini keltirib o'tadi. "Ilon po'st tashlagan kabi men ham o'zimni tark qildim. Bir mahal o'z mohiyatimga boqsam... oh, men unga aylanibman!" (8,44). O'zdan kechmoq tasavvufda insonlarga xos bo'lgan past va o'tkinchi dunyo tashvishlaridan voz kechmoq, asl Vatanimiz – Ollohning dargohiga intilish, unga yetishmoq uchun ilohiy yuksaklikka intilishdir. Tasavvuf loyini qorgan arablar, unga vujud va ulug'vorlik bag'ishlagan ajamliklar, uni hikmat, axloq bilan to'yintirgan va unga qalb va ruh ato qilgan turonliklardir.

Asarda tasvirlangan Najmiddin Kubro obrazini talqin qilar ekanmiz, shayxning hayoti bilan bog'liq ma'lumotlar ham ahamiyatli hisoblanadi. Ma'lumki, Najmiddin Kubro sharq mashoyixlari orasida xalqi, vatani, umuman insoniyatni zulm va jaholatdan qutqarish uchun o'z jonini fido etgan insonlardan biridir. Tasavvuf tarixida Kubro, Shayx Valitarosh, Abuljonib nomlari bilan tanilgan Najmiddin Abuljonib Ahmad binni Umar Xeva'iy 1145-yilda dunyoga kelgan. Uning Kubroviya tariqatiga ismini bergan Kubro nomi Qur'onda hashr kunini tamsil etgan "at-tammatul-kubro" (9,79-34) ifodasining qisqartirilgan shaklidir. Shuningdek, bu nom unga yoshligidan juda aqlli, ziyrak, bo'lganligi hamda ilmiy bahslarda hamisha g'olib chiqqani uchun ustozlari tarafidan berilgani qayd etilgan. Shuningdek, ba'zi muridlari uni "Ayatullohi'l-kubro" nomi bilan ataganlari ham rivoyat qilingan. Valitarosh ya'ni "Avliyolar yaratuvchi shayx" nomi esa allomaning qo'lida tahsil olgan bir qancha shogirdlari valiylik darajasiga yetganligi tufayli berilgan. "Shahidlar shohi" qissasida yozilishicha, Najmiddin Kubroning Shayx Najmuddin Roziy, Shayx Majididdin Bag'dodiy, Shayx Bahovuddin Valad, Shayx Raziuddin Ali Lolo, Shayx Jamoliddin Geyliy, Shayx Sayfuddin Boxarziy, Bobo Kamol Jandiy kabi shogirdlari islom olamida juda katta shuhrat qozongan. Shayx o'n ikkita shaxsni tarbiyalagan va ular keyinchalik shayx maqomiga sazovor bo'lishgan. Asarda Shayx tasavvuf yo'lida ajoyib yo'lbo'shchi va ustoz sifatida tasvirlangan bo'lib, shogirdlari orasida Majididdin Bag'dodiy va Sayfiddin Boxarziyga o'zgacha mehr bilan ta'lim bergani aks etadi.

Asarning asosiy mazmuni Najmiddin Kubroning tahsil jarayoni va ustozlari bilan suhbatlarida aks etadi. Najmiddin Kubro shar'iy ilmlarni, tasavvufni o'rganish uchun butun umrini sarf etgan. Riyo'at va xilvat qoidalarini Bobo Faraj Tabriziydan ta'lim olib, Iskandariya va Xamadonda hadis ilmini o'rgangan. "Bobo Faraj shogirdlari orasida Ahmadni alohida e'zozlar edi. U davrada sarmast o'tirgan Ahmadga yaqinlashib, uni dast ko'tarib yerga qo'ydi va qo'lidagi xirqani kiydirdi" (8,45). Shundan so'ng, hadis rivoyat qilish huquqini qo'lga kiritadi, Tabrizda imom Abu Mansurdan dars oladi.

Shuningdek, Xuzistonda Shayx Ismoil al-Kasriydan bir muddat tahsil oladi. Tasavvuf olamida mashhur bo'lgan bu shayx o'z davrasida samo' raqsi o'tkazardi. Samo' raqsini tan olmagan Najmiddin Kubro kuy yoki qo'shiq bilan zikr etishni rad etib, bular barchasi Haq visoliga yetishishga xalaqit beradi, deb o'ylardi. Shundan so'ng ustozlari Ro'zbixon maslahati bilan Xevaga qaytib, ulkan xonaqoh quradi hamda Kubroviya tariqatiga asos soladi. U o'z aqidalarida ko'proq Junayd Bag'dodiy ta'limotiga suyanadi, shuningdek, tasavvufiy-falsafiy g'oyalarni islomiy ta'limot bilan yaqinlashtirishga, uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Najmiddin Kubro diniy ta'limga alohida e'tibor berilgan savdogar oilasida voyaga yetgan. "Favai'ul-jamol" asarida bolaligida mato sotiladigan do'konlarini o'g'rilardan himoya qilish uchun do'konda yolg'iz o'zi tunagani va bu vaqtlarda aql-hushini olgan ba'zi ro'yolarni ko'rganini yozadi. Uning bu ifodalaridan tasavvufda tamsil etgan mushohadalarining asosi hayotining ilk bosqichlarida paydo bo'lganini anglash mumkin. Yoshlik davrini Xorazmda o'tkazgan Najmiddin Kubro tahsil olish uchun vatanini tark

etadi. Nishopurda Abul-Maloliy Abdulmo'mindan, Hamadonda Abul-ala al- Hamadoniyydan va Muhammad abu Sulaymon al- Hamadoniyydan, Isfahonda Abul Makorim Lebbon va Abu Jafar as-Saydaloniyydan, Makkada Abu Muhammad at-Tabbahdan, Iskandariyada abu Tohir as-silafiydan hadis ilmini oldi. "Favaihlul- jamal" asarida Iskandariyadaligida tushida Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) unga "Abul Jannob" shaxsini berganini, hadis bilan mashg'ul bo'lgani uchun uni maqtab, tunlarini Qur'on o'qish bilan o'tkazishini tavsiya qilgani haqida yozadi.(3,125)

Yosh Ahmad ibn Umar (Najmiddin Kubro) Xorazm shahrida madrasani tugatib, Iroq, Shom, Eron mamlakatlariga borib, fiqh, aqida, hadis ilmlarini mukammal o'rgandi. Shu davrda aqida va fiqh ilmlarini o'rganish bilan bir qatorda tasavvuf ilmlarini ham o'rgana boshlanadi, darveshlar suhbatida ishtirok etdi, xilvatga chekindi, riyozat chekib, nafs ijtihodi bilan mashg'ul bo'ldi. Ustozlari Abu Jafar Samoniy, Abul Makkorim Lubon, Abu Mansur Haft, Abu Tohir Salafiy, Ro'zbyehon Misriy, Shayx Ammor Yasir, Shayx Ismoil Qasriydan hadis va tasavvuf ilmlaridan ta'lim oldi. Najmiddin Kubroning tariqat yo'lidagi pirlarining ustozlari Shayx Abdulnajib Suhravardiy faqirlik va futuvvatni (javnordlik) birga qorishtirib tushuntiradi. Faqirlik deganda moddiy qashshoqlik emas, balki Alloh oldida o'zni yo'qotishni anglatadi.

Kubroviya tariqati asoslarida futuvvat – javnordlik nazariyasi yotadi, Hadisda aytilgan "Oluvchi qo'ldan beruvchi qo'l afzaldir" g'oyasini o'zida jamlagan javnordlik boylikni qoralamaydi, saxovatni targ'ib qiladi. Najmiddin Kubro qirq yoshga yetganda, 1185-yili Xorazmga qaytib keldi. U yerda katta xonaqoh qurdirdi, shu xonaqohda shogirdlarga ta'lim berib o'z maktabini yaratdi, kubroviya tariqatiga asos soldi. Kubro xonaqohida yuzlab shaxslar tarbiyalanib, islom, irfondan bahramand bo'ldi. Kubroviya tariqatining ham asosi Qur'on va sunnatga asoslangan bo'lib, uning ta'limotidan insonni sharaflash birinchi o'ringa quyiladi.

Shayx Najmiddin Kubro ko'plab irfoniy asarlar yaratgan: Najmiddin Kubro o'z asarlarida Alloh ma'rifatini anglash, ilm olish va ilm berish har bir muslim va muslimaning burchi ekanligini ta'kidlaydi. Najmiddin Kubroning "Ruboiylar to'plami" kitobi hali topilmagan. Sharqshunos olim Ye.Bertels turli bayoz va tazkiralardan Kubro qalamiga mansub deb taxmin qilgan 25 ta ruboiy ajratib olingan, hozircha ilm olamiga mana shu 26 ta (1 ta ruboiy Byertyels jamlanmasiga kiritilmagan) ruboiy ma'lum. Kubroviya tariqati o'z o'rnida naqshbandiya va mavlaviya tariqatlariga ham ta'sir qilgan. U asosan O'rta Osiyo, Rossiya, Eron mamlakatlarida keng tarqalgan. Kubroviya tariqatida chordon qurib, jahriy zikr majlislari tuziladi. Kubroviyadan mashhur quyidagi shahobchalar ajralib chiqqan: Firdavsi, bahoiyya, xilvatiya, rukniya, nuriya, nurbaxshiya, hamadoniya, barzanjiya.

Najmiddin Kubro bu jarayonda bilish nazariyasini ustun qo'yadi va uning anglash hamda tafakkur qudratiga tayanadi. Shuning sababli ham Kubro asarlarining bosh g'oyasida haqiqiy ishqni targ'ib etish, ma'rifatni tashviq etish bilan birga "Odob us-sufiya" asarida jamoat o'rtasida o'zini tutish, gapirish, salom berish, ovqatlanish, jamoat hurmati va manfaatini o'ylash, ta'zim-tavoze, so'zlash me'yori, umuman, inson ma'naviyati bilan bog'liq barcha masalalar xususida bir mutafakkir sifatida fikr yuritadi. "Xirqa cho'natgi sir-asror makoni va xalq panohidir, ya'ni kimki menga o'z sir-asrorini aytsa, oshkor etmasligim va kimki mendan panoh istasa, uni panohimga olishim shart, garchi u kofir bo'lsa ham. Shuningdek, xirqa etagi tariqat yo'li bo'lib, uni musulmon birodarim ustiga tashlab, uni himoya qilaman". Kasal ko'rishga borish, janoza yoki juma namoziga boorish tartiblari, taom tanovul qilish odobi xususidagi mulohazalar ham barcha zamonlar ahli

uchun ibratlidir: Sufi “to jamoat taom yeyishni tugatmaguncha taomdan qo‘l tortmasligi va boshqalarni ko‘proq yeyishga undashi lozim. Agar nafl ro‘zasi bo‘lsa, uni ochish lozim, chunki jamoaning manfaati birinchi o‘rinda bo‘lishi kerak”.

Najmiddin Kubro obrazi ma‘naviy merosi tasavvuf olamida katta o‘rin egallaydi. Uning forsiy va arab tillarida yozgan ko‘plab ilmiy risolalari, badiiy asarlari, xususan, “Odob us-sufiya”, “Favoyixul Jamol va Favotix ul-jalol”, “Faqirlik haqida risola”, “Xidoyat ut-tolibin”, “Minxoj us-solihin”, “Ilal -xoimil-xoif min lavmat illoim”, “Al usul-al-ashara”, “As-sayr val xoir”, “As-sayr val xayr” singari risolalari shulardandir. Ushbu asarda kubroviya tariqatining asosiy aqidalari olam va unda insonning vazifasi haqida bir qancha fikrlar keltirilgan. Shuningdek, asarda olami sug‘ro va olami kubro haqida to‘liq sharhlar berilgan. Olam – zot (mohiyat) va sifatlar jamlanmasi bo‘lib, zotning ham, sifatning ham alohida qismlari mavjuddir, ular ham olam deb yuritiladi. Bu haqdagi dastlabki qarashlarga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

1. *Olam g‘ayb – inson ko‘zidan, sezgi organlaridan yashirilgan olam.*

2. *Olam shuhud – inson ko‘zi va sezgi organlari bilan ko‘ra oladigan, his qila oladigan olam.*

Bu ikki olamni ilm ahli, so‘fiylar turlicha nomlar bilan ataganlar. Shuningdek, Olamni tushuntirishda yana ikki xil nomlash mavjud bo‘lib, bu istiloh asosan tasavvuf ta‘limotida keng qo‘llaniladi. 1. Olami sug‘ro (kichik olam) 2. Olami kubro (olami kubro).

Olimlarning fikriga ko‘ra, Olami sug‘ro – bu inson, olami kubro – bu borliq. Yunon faylasuflari olami kubroni makrokosmos (kosmos), insonni esa mikrokosmos deb ataganlar. Inson kubro va sug‘ro olamning belgisi hisoblanib, katta olamdagi bor narsalar kichik olamda ham to‘liq aks etishi aytiladi. Shuning uchun inson olam mohiyatini anglashi uchun avval o‘zini anglashi, o‘zini tanishi lozimdir. Tasavvuf ta‘limotida bu mashhur “man arafa nafsahu, faqod arafa robbahu” (kim o‘zini anglasa, bas u Robbisini anglabdi) iborasi bilan talqin etiladi. Olami kubroning ham Olami sug‘roning ham asosida javhar (falsafada substansiya deyiladi) turadi. Har ikki olamning boshlanishi shu javhar, zotdan boshlanadi. Har ikki olamda bor narsalar avval mana shu javharda – urug‘da bo‘lgan. Har ikki olam javhari – urug‘i asli bir uru, ikkalasi bir urug‘dan bino bo‘lgan. Olami sug‘ro va olami kubroda sodir bo‘ladigan har bir voqea – hodisa, avvalo, urug‘larda – javharda sodir bo‘lgan bo‘ladi. Demakki, sodir bo‘layotgan har bir voqea-hodisa tasodif emas. Shariatda, aniqrog‘i aqidada bu kabi nazariy qarashlarga munosabat bildirib o‘tilgan.

Najmiddin Kubro ta‘limotining mag‘zini insonni ulug‘lash tashkil etadi. Shayx yetti marta Haj safari qilib, o‘zining qirq yillik umrini safarda o‘tkazib, yurt kezib, yuzlab zamona allomalari bilan suhbatlashgan, bahs-u munozara qilgan. Ayni shu yillar mo‘g‘illarning Xorazmga bosqini yuz beradi. Abdurahmon Jomiyning “Nafohot ul uns” asarida yozishicha, bosqinchilar shaharga kirganda Najmiddin Kubro oltmish nafar hamrohini to‘plab ularni vatan himoyasiga da‘vat etadi. Ammo ular quyundek dushman vahmidan tumtaraqay qochadilar. Najmiddin Kubro esa qo‘yniga tosh to‘ldirib, qo‘liga xanjar olib jangga kiradi: dushmanning yomg‘irday o‘qlar ostida ularga tosh otishni kanda qilmaydi va o‘qlardan biri unga tegib qo‘lida bayroqni tutganicha vafot etadi.

“Shahidlar shohi” asarida shayxning ushbu fojiali o‘limi juda ta‘sirchan ifodalangan. Imom Mujtahiddinning yalinib-yolvorishiga qaramasdan Najmiddin Kubro o‘z aqidasidan voz kechmadi. Vatani, xalqini, shogirdlarini tashlab omon qolgandan ko‘ra jangda shahid bo‘lishni afzal ko‘rdi. Mo‘g‘ullar otgan o‘q uning yuragiga sanchilgan bo‘lsa-da, bor kuchini to‘plab mo‘g‘ul askari qo‘lidan dushman bayrog‘ini tortib oladi va uni qo‘lida

g'ijimlagancha jon taslim qiladi. Buni ko'rgan dushman askarlari Shayxning barmoqlari orasidan qancha harakat qilishsa ham bayroqni sug'urib olishni uddalay olmaydilar va uning butun tanasini, barmoqlarini maydalab, o'z maqsadlariga yetishadi. Najmiddin Kubro qahramonlarcha halok bo'ladi va "Shahidlar shohi"ga aylanadi. Bu haqda Shayx o'limidan ikki asr o'tib, buyuk donishmand podshoh Mirzo Ulug'bek o'zining "Tarixi arba' ulus" kitobida shunday qayd etadi: "Hazrati Shayxi buzrukvorning Xorazm qatli omidagi qatli muborak turkiy yund yiliga muvofiq keladigan 618-hijriyda sodir bo'ldi. Hazrati Shayxi Valitarosh Shayxi Najmiddin Kubro, Tangri uning ruhini muqaddas tutsin, (vafotiga bitilgan) tarixda shunday deyiladi. Dini Haq iqlimning podshohi, ul pir sarpanjasidan o'n zabardast yigit yalovini ko'rib hayratda qolgan oqillar bu holni sharhladilar: Yalov uchini shayx tutib, tarix aytadiki, vafotim sanasi "Shohi shuhaduo" (Shahidlar shohi) dir". Oradan yana bir necha o'n yilliklar o'tgach, temuriylar sulolasining so'nggi qudratli vakillaridan biri va buyuk shoir bo'lmish Husayn Boyqaro bir kuni turkiy she'riyat sultoni Hazrat Mir Alisher Navoiyga qarata aytadikim: "Agar men podshohlik ishlari ila shug'ullanishdan qo'l tortishga jazm etsam, Shayx Najmiddin Kubro mozori ostonasining jo'rubkashi (supuruvchisi) bo'laman". Bu haqda Muhammad Shayboniyxon shunday ta'kidlaydi:

Oning tarixidur "Shahi shuhado"

Yana bir alif birla bo'ldi ado (8,187).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Haqqul.I O'zbek tasavvuf she'riyatining shakllanishi va taraqqiyoti.-T.:1995.126-b
2. Haqqul.I.O'zbek tasavvufiy she'riyatining o'rganilish muammolari.www.kh-davron.uz
3. Homidiy.H.Tasavvuf allomalari."Sharq".:Toshkent-2004. Muqaddima.-208 b
4. Fuat Ko'prulu.Turk edebiyatinda ilk mutasavviflar.Turk tarix kurumu basimevi-Ankara.1976.-556 s.
5. Komilov.N.Tasavvuf.-T.: "Movarounnahr".2009.-447 b
6. Karomatov X. Qur'on va o'zbek adabiyoti. – T.: Fan. 1993.-281 b
7. Omanova M. Istiqlol davri o'zbek romanlarida shayx valiyalar obrazining badiiy talqinlari. Filol. fan. b. fals. dok. diss... avtoref. – Jizzax, 2022.
8. Xurshid Davron.Shahidlar shohi.Tarixiy- ma'rifiy qissa.-Toshkent: "Fan",2008.-200b.
9. Ahmad.A, Nurilloh.I. Qur'oni karimning mashhur suralari fazilati.-Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi" nashriyot,2021.Naziat surasi.-672 b
10. <https://Naqshband.uz>
11. <https://kh-davron.uz>
12. <https://xs.uz>
13. [https:// Forum.Ziyouz.com](https://Forum.Ziyouz.com)
14. <https://teletype.in>
15. <https://saviya.uz>
16. www.ziyounet.uz